

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND
FILIALI



“TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING
HUQUQIY-ME’YORIY HUJJATLARI”

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim
muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

O‘qituvchi: Begimqulov Zarif Axmadovich



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
**YOSHLAR
SIYOSATI VA SPORT
VAZIRLIGI**

MAVZU: VAKOLATLI DAVLAT ORGANING TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHGA OID HUQUQIY-ME'YORIY HUJJATLARI

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi.

2. Vakolatli davlat organining ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlari.



O‘zbekiston Respublikasining “**Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida**” qonunining 8-moddasi:

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi
jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.



2023-yil 7-aprel
PQ-114

YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI FAOLIYATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI


Normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish;

yoshlar va sport sohasida **yagona davlat siyosatini amalga oshirish**, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini **muvofiglashtirish** hamda mazkur sohalarda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish


sohaga oid **kompleks dasturlarni** ishlab chiqish hamda yoshlar va sport sohasida faoliyat yuritadigan **nodavlat va notijorat tashkilotlar** hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash

yoshlarning **bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish**, ularni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash







yoshlarning **intellektual salohiyatini oshirish**, iqtidorini ro'yobga chiqarish, ishbilarmonlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash




aholi o'rtasida **sportni ommalashtirish** va sog'lom turmush tarziga **keng jalb etish**, sport ta'lim tizimini takomillashtirish, sport turlari bo'yicha yuqori natijador **sportchilar zaxirasini yaratish**



olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish, nufuzli xalqaro musobaqalarda sportchilarning **muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash**



yoshlar siyosati va sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sohani bosqichma-bosqich raqamlashtirish, sohadagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeyini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish



yoshlar siyosati va sport sohalaridagi xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-iyun PQ–3031-son Qarori



O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturining asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

jismoniy tarbiya va sport sohasini tashkil etish va boshqarish tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish;



jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport komplekslarini qurish, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlantirish;



jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta‘minlash;



ta‘lim muassasalari o‘quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o‘rtasida sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o‘tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash;

ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog‘ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, Dasturning mazmun-mohiyati hamda uni amalga oshirish jarayoni to‘g‘risida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmonining mazmuni



1 O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

2 O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari

Quyidagilar tasdiqlandi:



3 O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2020-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”

4 Respublika tuman (shahar)larni ustuvor, istiqboldagi, rivojlanayotgan sport turlariga ixtisoslashtirish ro‘yxati

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilari oʻrtasida oʻtkaziladigan jismoniy tarbiya fan olimpiadasining gʻolib va sovrindorlarini (1-3 oʻrin) tayyorlagan jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari va sport taʼlim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmasdan, ularga toʻgʻridan toʻgʻri beriladi:



tuman (shahar) bosqichi gʻolib va sovrindorlarini (1-3 oʻrin) tayyorlagani uchun

ikkinchi malaka toifasi

viloyat bosqichi gʻolib va sovrindorlarini (1-3 oʻrin) tayyorlagani uchun

birinchi malaka toifasi

respublika va xalqaro musobaqalar gʻolib va sovrindorlarini (1-3 oʻrin) tayyorlagani uchun

oliy malaka toifasi



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-mart 140-sonli Qarori “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida Nizom”

Umumiy o‘rta ta’limning muddati
11 yil bo‘lib, uzluksiz ta’lim tizimining **majburiy**
mustaqil turi hisoblanadi

Davlat umumta’lim muassasalarida umumiy o‘rta
ta’lim olish **bepul** amalga oshiriladi.


Umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari

- boshlang‘ich ta’lim (I — IV sinflar)
- tayanch o‘rta ta’lim (I — IX sinflar)
- o‘rta ta’lim (X — XI sinflar)

kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi

**Nizom 10 ta bob, 85 ta
banddan iborat**





**O‘quv-tarbiya
jarayonini tashkil
etish va uning
mazmuni**

O‘quv yili 2-sentabrdan 25-mayga qadar

O‘quv yilining davomiyligi — 34 hafta
(I sinflar uchun 33 hafta);

o‘quv haftasining davomiyligi — 6 kun (pedagogik
kengashning qaroriga ko‘ra I — IV sinflar uchun 5 kun);

dars mashg‘ulotining davomiyligi — 45 daqiqa;

dars mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffusning
davomiyligi – 5 — 10 daqiqa

o‘quv kuni o‘rtasidagi tanaffusning davomiyligi –
15 — 30 daqiqa



**I sinf o‘quvchilari uchun
fevral oyi davomida
qo‘shimcha bir haftalik
ta‘til belgilanadi.**



AMALDAGI TARTIBGA KO'RA:

Umumta'lim muassasalarining filiallarida o'quvchilar soni 100 nafargacha bo'ladi.

Umumta'lim muassasalarining V — XI sinflar o'quvchilari tegishli fanlardan bosqichli nazoratlarni muvaffaqiyatli topshirganlaridan so'ng keyingi sinfga o'tkaziladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining I sinfiga bolalar yetti yoshga to'ladigan yilda tibbiy xulosaga muvofiq qabul qilinadi.

Bolalar umumta'lim muassasasining I sinfiga tayyorgarlik darajasidan qat'i nazar, tanlovsiz qabul qilinadi, musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari bundan mustasno.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!